

**Forish tuman axborot-kutubxona markazi
axborot-bibliografiya xizmati**



**Yozuvchi, shoir, drammaturg, O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan san'at arbobi Omon Muxtor (Omon
Sulaymonovich Muxtorov) tavalludining 85 yilligiga
atab kitobxonlar uchun eslatma**

Soʻz boshi

Shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon Omon Muxtor ijodi o'zbek adabiyotining o'tgan asr ikkinchi yarmi va yangi asr boshlanishi davridagi taraqqiyoti tarixida alohida sahifani tashkil etadi. Adib to'g'risida oldinlar «u nasrda ham qalam tebratgan shoir» deyilgan bo'lsa, bora-bora «u she'r ham yozadigan nosir, asosan romannavis» deya boshlanganiga guvohmiz. Aslida, bu ikki janrda (drama, tarjima, xotira, suhbat kabilar bobida ham) yozishga u deyarli baravar kirishgan va hamon shu «betartib» yo'sinda ijod qilib keladi. Bunga to'xtalganimizga sabab, adibning nazmini nasridan, nasriy asarlarini she'riyatdan ajratib o'rganib bo'lmaydi. Bular «biri-biriga tutashib ketgan», bir butunlikni tashkil etgan—yaxlit adabiy holatdir.

Omon Muxtor hayot va ijodi

Omon Muxtor (Muxtorov Omon Sulaymonovich) 1941-yil 16-iyulda Buxoroda tug'ilgan. O'rta maktabni bitirib, nashriyotlarda, O'zbekiston davlat radio va televideniye qo'mitasida, "O'zbekfilm" kinostudiyasida va G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida adabiy xodim bo'lib ishlagan, "Sharq yulduzi" jurnali bosh muharriri bo'lgan. Omon Muxtorning ijodi 50-yillar oxirida boshlangan bo'lsa-da, birinchi she'riy to'plami "Chorlar quyoshli yo'llar" 1966-yil chop etilgan. Omon Muxtor "Egilgan bosh" romani uchun 1999-yil Yozuvchilar uyushmasi mukofotiga sazovor bo'lgan. Yozuvchining yubileyi sharafiga 1999 yil "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.

Omon Muxtor butun ijodiy faoliyati davomida she'riyat bilan jiddiy shug'ullangan. U, aytib o'tilganidek, o'z ijodini she'r yozishdan boshlagan. Dastlabki kitoblari she'riy to'plamlari bo'lib, u badiiy adabiyot ixlosmandlariga shoir sifatida ma'lum bo'lgan. O'tgan asrning 70-80-yillarida shoir "Chorlar quyoshli yo'llar" (1966), "Ohang" (1974), "Yog'du" (1979), "Marvarid" (1985), "Shiddat" she'riy to'plamlarini nashr ettirdi. Yosh shoirning ijodiy mashqlariga nafaqat oddiy odamlar – soʻz sanʼati muxlislari, balki katta ijodkorlardan ayrimlari eʼtibor qarata boshladilar. 1975 – yilda Oʻzbekiston xalq shoiri Mirtemir "Oʻnta boʻlsa, oʻrni boʻlak" nomli maqola yozib, unda ikkita navqiron ijodkor – Omon Muxtorning "Ohang", Mashrab Boboevning "Bahor kayfiyati"

majmualarini zamonaviy poeziya muammolari nuqtai nazaridan tahlil etgan. Aruz vaznida Omon Muxtor o'nlab g'azallar, muxammaslar yozgan. Ayniqsa, A. Navoiy g'azallariga bitgan taxmislari alohida e'tiborga loyiq. Shoirning barmoq va erkin vaznlarda yaratilgan aksariyat she'rlarini o'qib, u takrorlanmas, boshqa nozimlarga o'xshamagan shoir ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilamiz. Omon Muxtor she'r yozish maqsadida qo'liga qalam olar ekan, hech qachon soxta tuyg'ularni qog'ozga tushirishga urinmagan. Bari yozganlarida tuyg'ular tiniq va haqqoniydir. Shoirning badiiy adabiyot muxlislariga aytadigan so'zlari bor. U bu so'zlarni quruq, yalang'och tarzda ifodalamaydi, aksincha obrazli, ta'sirchan shakllarda, o'ziga xos ovoz va ohanglarda she'rxonlar qalbiga yetkazishga harakat qiladi. Shu ma'noda Omon Muxtor haqiqiy, kata shoirdir.

Ijodkor nasr, ayniqsa, romanchilik sohasida ko'proq mehnat qilayotganida ham, she'riyatdan uzoqlashib ketmadi: lirik asarlar yozishda davom etdi. Bu bilan kifoyalanmay, ko'pchilik romanlariga qahramonlarning ruhiy holati bilan bog'liq she'rlar, she'riy parchalarni kiritish tajribasini davom ettirdi. «Nigoh» (1968), «Qushlar va tushlar» (1971), «Shaharlik kelinchak» (1973), «Hayot darvozasi» (1978), «Uchqur poyezdlar» (1981), «Bolalikka sayohat» (1984), «Vazifa» (1988), «O'lmagan jim» (1995) kabi hikoya va qissalarida zamondoshlarimiz hayoti, ularning quvonch va iztiroblari falsafiylikka moyil bir tarzda aks ettirilgan.

Omon Muxtorning «Yillar shamoli» (1976), «Egilgan bosh» (1989), «Ayollar mamlakati va saltanati», «Ffu» (1997), «Aflotun» (1998), «To'rt tomon qibla» trilogiyasi («Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam», «Tepalikdagi xaroba», 2001), «Maydon» (1999), «Ishq ahli» (2001) kabi zamonaviy va tarixiy mavzulardagi romanlari o'zbek nasrining shaklan va mazmunan boyishida muhim o'rin tutadi. Ulardagi yangicha tasvir usullari, tafakkur tarzi va roman-hangoma, roman rivoyat janrlaridagi shakliy izlanishlar e'tiborga loyiq. «Ayollar mamlakati va saltanati» romani asosida badiiy film ishlangan (2001). Pyesalari Xorazm teatrida sahnalashtirilgan («Bosh masala» va b.). Omon Muxtorning «Tepalikdagi xaroba», «Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam» romanlari yaxlit holda «To'rt tomon qibla» trilogiyasini tashkil etgan. So'nggi yillarda «Afu», «Ayollar mamlakati va saltanati», «Aflotun» romanlari chop

etilgan. Mazkur asarlar yangicha uslubda yozilgan bo'lib, kitobxon va adabiy jamoatchilik e'tiborini tortadi.

Shoir she'rlaridan namunalar

ODAM VA OLAM

Odam yaratilgan boshdan toqatsiz,
Yugurib-elishga go'yoki mahkum.
Ko'pchilik bardoshga goh layoqatsiz,
Halovatdan etar o'zini mahrum.
Asli, bu dunyoda bardoshdek buyuk
Tushunchaning o'zi yo'qdir azaldan.
Goh go'zal bo'lsa-da yashamoq kuyuk,
Bu — kaltak yegandek ayiq asaldan.
Ummonda ohista yurgandek yelkan,
Shundan, qadrlayman bardoshni doim.
Asragandek bo'ldi yo'limda kelgan
Telba holatlardan meni Xudoim.
E'tibor bermadim umrim davomi
Men tomon otilgan hatto har toshga.
Ota-bobolarning sokin kalomi
O'rgatgandek bo'ldi meni bardoshga.
Tug'ilmoq bor kabi barhaqdir o'lmoq,
Ne ma'no, dunyoni ko'rmoqlik elas?
Qisqa bir umrda bardoshli bo'lmoq —
Beparvolik emas.
Beg'amlik emas.

* * *

O'zimcha bir asr yashashga shayman
Va lekin emasman hakim yo hakim —
Men yaxshi bilmayman. Aniq, yashayman
Xudo buyurgandan na ko'p va na kam.
Albatta, bandaga xos bo'lgan holat —
Hayotga muhabbat.
Hayotdan mastlik.
Shu bois, ko'ngilga solar malolat
Gohida ortiqcha qismatparastlik.
Ammo kim qutulgan qochib qismatdan?
Bu gaplar "ku-ku"dek, biz bir qumrimiz.
Ne bo'lsin, elingga qilgan xizmatdan —
To'qilishi kerak bizning umrimiz.

* * *

So'z sharaftin topgan dunyoda odam,
Shundandir, yasholmas ba'zan "sayroq"siz.
To'pdek uchayotir Yer shari. Olam —
Oldinga yurolmas qo'lda bayroqsiz.
Lekin biz ko'tardik ne "bayroq"larni?
Bu "bayroq"lar yashar afsuski, hamon —
Afsuski, yo'ldagi jo'n "sayroq"larni
Haqiqat, deb bilar ko'p payt olomon.
Dunyo qancha ko'rkam, shuncha xatarli —
Ojizdir barchani baxtli etmoqqa.
Gohida bir gugurt cho'pi yetarli
Er uchun lov etib yonib ketmoqqa.

Men nima istayman? Yuraklar dog'i
Yuvisin. Jaholat chekinsin yo'ldan —
Muhabbat bayrog'i, hayot bayrog'i,
Ezgulik bayrog'i tushmasin qo'ldan.
Elim! Bayrog'ingni qo'lda tut mahkam,
Yurtim! Bayrog'ingni balandroq ko'tar...
Tunlarda bexosdan uyqu o'chgan dam —
Shu gaplar ko'pincha ko'nglimdan o'tar.

Tushuncha

Shart emas bir yerni qoralash,
Kuyunib yurakni poralash.
Ko'rkam mamlakat ko'p. Sharqu G'arb! —
Tangalarda etilgandek zarb.
O'ylash kerak o'z hayotingni,
Kuylash kerak o'z bayotingni.
Birovlarni yurmay yomon deb,
Bermoq kerak o'z yurtingga zeb.

* * *

Tushunaman: umr ozligi,
Kafolatning arzonligiga.
E'tiqodning boshdan rostligi
Yoki uning yolg'onligiga.
Inson uchun har bir tushuncha
Izlar ekan o'ziga sohil.
Bu fikrga yetib kelguncha
Kechdim uzoq manzil-marohil.
Endi ayon: ko'ringan sohir
Hayotning biz haqqin to'lovchi.
Baxtiyormiz, aytgandek shoir, —
Va albatta oddiy yo'lovchi.

* * *

Biz ko'rib turgandan tashqari
Daraxtlar, qushlar bor. Xayoliy.
Sirli bir olamning lashkari —
His etsang, ko'rkamdir. Va oliy.
Shart emas ko'milish oltinga,
Atrofda shu olam nafasi.
Hech qachon o'lmaydi — oldinga,
Yuksakka intilish havasi.
Hech qachon o'lmaydi, xayolda
Yashagan daraxtlar va qushlar.
Tinglasang, keladi, har holda,
Olisdan g'aroyib tovushlar.

* * *

Sig'magancha yurak ko'ksimga,
Qoqqanida ko'krak qafasin —
Uyda dasta rayhon ham menga
Keltiradi hayot nafasini.
El qatori yashagan banda,
Arzir tutsam boshimni baland —
Ne gullarni ko'rdim gulshanda,
Ne gullardan bo'ldim bahramand.
Lekin hatto dag'al o'tlar ham
Istamadim bo'lishin payhon.

Yuragimga bir sevinch, bir g'am
Yuklagandek oddiy shu rayhon.

YOMG'IR ARQONI

Qo'llarimda yomg'ir arqoni,
Tortdim uni botib jiq terga —
Sen bir lahza qo'yib osmonni,
Tushgin, deya yonimga. Yerga.
Yomg'ir tindi. Arqon uzildi,
Sen ko'rinding porlab, axiyri.
Garchi mening rejam buzildi,
Bo'lib qoldim osmon asiri.
Endi o'tar umrim to abad
Oyoq yerda, osmonda boshim —
Bu dunyoda menga muhabbat
Azobini bergan, quyoshim.

* * *

Yomg'ir. Keyin, qor yog'ar ezgin,
Sochilganu qotgan kabi tuz —
Erda endi ola boshlar tin
Parcha-parcha shakllangan muz.
Sen qaraysan deraza osha,
Bor kuchingni ko'zingda yig'ib.
Senga kamdir qilmoq tomosha,
Kezish kerak ko'chaga chiqib.
Kelar sapchib o'rningdan turgin,
Ko'kragingda ammo bir sanchiq.
Ko'chalarda kelar yugurgin,
Oyoq osti garchi sirpanchiq.

* * *

Nafis lablaringda, quyoshdan parcha
Engil tabassumning gullari yonar —
Shu asno go'yoki surinib parda,
Sening borlig'ingda
Ayol uyg'onar.
Endi qad tiklaysan unutib g'amni,
Chekinib hayotdan butun dag'allik.
Sening timsolingda go'zal olamni
Ko'rmaslik, ehtimol, bu — kambag'allik.

GO'ZALLIK

Azob bilan kelgan tushuncha:
Sal munosib
Hayotni qurmoq.
Qanotlaring sinib-tushguncha
Erdan bir oz balandda turmoq.
Tortish kuchi Yerga xos xislat,
Tortib ketar
Yo'l bersang, pastga.
Har qadamda qidirsang uzlat, —
Aylanasan
G'urbatparastga.
Bizga yot bir dunyoda emas,
Shu dunyoda
Yovuz va ezgu.
Yiqilmasang, niyatga evaz

Ajdodlardan yetgan
Kuchdir bu!

* * *

Bilamiz,
Sinoning manguilik tomon —
Tirik paytidayoq yo'l olganini.
Bir qism asarin tanisa jahon, —
Bir qismi ko'p o'tmay, yo'qolganini.
Bu ishga diqqatni bir oz qaratsa,
Hatto bolaning ham yetadi aqli —
Kim aziyat chekib nedir yaratsa,
Uning yaratgani yashashga haqli.
Lekin biz bir umr yig'ib o'z mulkin —
Asrashga topganmiz na kuch, na holat.
Shundan, ma'rifatga yonma-yon, mumkin
Ba'zan ustimizdan kulgan jaholat.

* * *

Eshik ochiq. Deraza ochiq.
Hech kim xalal bermaydi yelga.
Chor atrofga go'zallik sochiq,
Sen go'zallik izlaysan. Telba.
Yo'lga chiqsa, olam bepoyon,
Ko'zing tushar gul kabi elga.
Hammayoqda go'zallik shoyon,
Sen go'zallik izlaysan. Telba.
Umring o'tar shu ko'yda, nahot,
Yurgan kabi tik qarab selga.
Izlagandek dunyoga najot, —
Sen go'zallik izlaysan. Telba.

MAJNUNLIK

Bu daraxtlar qanday xushqomat!
Biz Layli, deb
Turar hovlida.
Men ularga qilsam xushomad
Ayb emasdir.
Oshiq holida.
Bilmagandan oshiqlik dardin,
Qancha qalblar dunyoda yaxlar.
Men olgandan majnunlik darsin,
Layli bo'ldi
Nogoh daraxtlar.
Ular bilan, avvaldan kuyuk
Hayotimga kirdi intiqlik.
Endi yashar menda bir "buyuk"
Talabchanlik, deymi,
"Injiqlik".

* * *

Bu dunyoda kamdir majnunlik,
Hayot ba'zan
birdek quyular.
Menga shundan, ortiq mamnunlik
Uyatsizlik bo'lib
Tuyular.

O'z-o'zini emas,
odatda,
Birovni deb sevgi tug'ilar.
Yo'llarda duch kelgan ofatda —
Asranishi kerak
Tuyg'ular.

* * *

Yo'q hech bir so'z. Yo'q hech nido.
Ortiqcha rang yo jimjima.
Sizga jonim fido-fido,
Bu holatning ismi nima?
Eski dunyo, axir, kimlar
Ichmaganlar bu bodani?!
Ne qilardi, zo'r hakimlar
Bir ko'rsalar men-soddani.
Bosh aylandi. Ko'zim tindi,
Sevib qilgan xatoyimdan.
Shafqat sizdan, lekin endi
Yolg'iz panoh Xudoyimdan.

* * *

Kelsangiz-chi ertaroq,
Har dam yo'lda qurmay dor.
Sizdan ko'ra erkaroq,
Sizdan yaxshiroq kim bor?!
Sevgi degan tuyg'udan
Shartmi alamga botish?!
Uning ishi uyqudan —
Odamlarni uyg'otish.

* * *

Kim yonsami yo kuysa, go'zal yori uchundir,
Bag'rida talotumli hayot bori uchundir.
Umringdagi ming dardu alam garchi muhabbat,
U bo'lmasa, ko'zing qorayar, dori uchundir.
Tong qushlari sayrar gulu bog' ustida badmast,
Oshiq atalar nolasi ham zori uchundir.
Ey Sharq, seniki "Cho'li Iroq", deymi "Munojot",
Dunyo tirilar ko'ksidagi tori uchundir.
Yoringni tanib, sevgil Omonlikda hayotni —
Hattoki, uning yomg'iriyu qori uchundir.

ALISHER NAVOIY G'AZALIGA MUXAMMAS

Og'am Anvar Yunusga

Garchi ko'klam oldidan yomg'ir, shamol o'ldi yana,
Garchi umrimning butun mulki xayol o'ldi yana,
Garchi dunyo qaytadan menga savol o'ldi yana —
Boda tut, soqiyki, ayyomi visol o'ldi yana,
Dast berdi shodlik, g'am poymol o'ldi yana.
Men edim bandi-asir kelgan alam davrindakim,
Ruhi yo'q, qo'ldan tushib ketgan qalam davrindakim,
Ko'cha-ko'yda sudralib yurgan tanam davrindakim —
May mudom ich, ul labi maygun sanam davrindakim,
Zuhd ila taqvo harom-u, may halol o'ldi yana.
Ul sanamning izlari jonga davo bo'lg'on uchun,
Aytganu aytmaz so'zi ko'ngilda jo bo'lg'on uchun,
Neki qismat yozmasin, bori ravo bo'lg'on uchun —

G'amza birla ko'zlari ayni balo bo'lg'on uchun,
Ushbu ma'nig'a parishon, zulfi dol o'ldi yana.
Uchragan har kimsaga dardin yorib erdi ko'ngul,
Parcha-parcha ajralib, bundan horib erdi ko'ngul,
Oqibat ko'nglin topib, o'zni qorib erdi ko'ngul —
Xo'blar ko'yig'a sayr aylar borib erdi ko'ngul,
Kech kelurda anga, bilmon, kim zavol o'ldi yana.
Sen omonlik istagan, angla, muhabbat nomi dil,
Bo'lmagay dil senga rom, sen bo'lmaguncha romi dil,
Keldimi baxt nogahon, kelgan nafasda shomi dil —
To labi jonbaxshidin topdi Navoiy komi dil,
Ey ajal, o'lmak anga asru mahol o'ldi yana.

SHIDDAT-SHIJOATLI IJOD

Shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon Omon Muxtor ijodi o'zbek adabiyotining o'tgan asr ikkinchi yarmi va yangi asr boshlanishi davridagi taraqqiyoti tarixida alohida sahifani tashkil etadi. Adib to'g'risida oldinlar «u nasrda ham qalam tebratgan shoir» deyilgan bo'lsa, bora-bora «u she'r ham yozadigan nosir, asosan romannavis» deya boshlanganiga guvohmiz. Aslida, bu ikki janrda (drama, tarjima, xotira, suhbat kabilar bobida ham) yozishga u deyarli baravar kirishgan va hamon shu «betartib» yo'sinda ijod qilib keladi. Bunga to'xtalganimizga sabab, adibning nazmini nasridan, nasriy asarlarini she'riyatdan ajratib o'rganib bo'lmaydi. Bular «biri-biriga tutashib ketgan», bir butunlikni tashkil etgan—yaxlit adabiy holatdir.

Omon Muhtor (Muxtorov Omon Sulaymonovich) 1941 yilning 16 iyulida Buxoroda tug'ilgan. Otasi Sulaymon Xo'ja madrasa ko'rgan bilimdon kishi bo'lib, uning tarbiyasiga e'tibor berib qaragan. Keyinchalik u ijodkor sifatida shakllanishida xizmati singgan, deyish mumkin. Omonjon o'rta maktabni bitirgach, Toshkent davlat dorilfununi (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika bo'limiga o'qishga kirdi. Bu yerda o'qishni tamomlagach, respublika radiosida, «O'zbekfil'm» kinostudiyasi va kino qo'mitasida, Adabiyot nashriyotida xizmat qildi. Omon Muxtor faoliyatining asosiy qismi «Sharq yulduzi» jurnalini bilan bog'liq. U ko'p yillar ushbu mo'tabar jurnalning bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari, bosh muharriri lavozimlarida ishladi.

Garchi she'r yozishni o'quvchilik yillaridayoq boshlagan bo'lsa-da, 1966 yilda uning «Chorlar quyoshli yo'llar» deb nomlangan ilk she'riy to'plami nashr etildi. Kitobxonlar tomonidan bu to'plam iliq kutib olindi. O'sha, o'tgan asr elliginchi yillar oxiri, oltmishinchi yillar boshlanishida shaxsga sig'inish illati fosh qilinib, hayotda o'z davri sharoiti darajasida yangi bir «ko'tarilish epkini» sezilgan, adabiyotimizga gurillab yangi bir avlod—Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Husniddin Sharipov, Xayriddin Saloh, Yusuf Shamansur, Aziz Abdurazzoq, Sayyor, Jamol Kamol, Erkin Samandar, Ma'ruf Jalil, Rauf Parfi, Omon Matjon, Cho'lpon Ergash, Mashrab Boboev va boshqa qator shoirlar—katta saf kirib kelgan edi. Bu safda o'shandayoq Omon Muxtorning ham o'ziga xos ovozi va so'zi bor edi. Ushbu adabiy avlod ijodiga

xos bo'lgan—bevosita insonning murakkab olamiga murojaat qilib, ichki kechinmalarini turfa bo'yoqlarda ochishga intilish Omon Muxtor she'riyatiga ham xos. Shu bilan birga, abadiy mavzular—tabiat va muhabbatni yoritishga ko'proq va ayricha e'tibor, hayot hodisalari haqida teran-falsafiy fikr yuritishga moyillik uning she'riyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunga (osoyishta ko'ringan ruhiy holat talqiniga) qanchalik zid tuyulmasin, uning she'riyatida (aksar nasriy asarlarida ham) bosh belgi—harakatdir. Bu, endi uzoq yillar davomida yaratilgan ijod namunalari, adib qahramonlariga faol (harakatchan) namoyish berish barobarida, hayotda Omon Muxtorning o'zi ham avvaldan yonib yashashga, yonib ijod qilishga, maqsad manzili sari yonib shiddat-shijoat —bilan olg'a intilishga da'vat etilganini ko'rsatadi. U ham, qahramonlari ham «bosgan har qadami, o'ylagan o'yi, ko'rgan-kechirgani, kuylagan kuyi «harakatdan, «orom va sukutni bilmay» hayotda kurashib yashashdan iborat insondir. Shu sababdan, balki bir payt u «Shiddat» degan she'rida (1990 yil shu nomda kitobi bosilgan) bunday deb ham yozgan edi:

Qonimda yashaydi qirq besh yildan buyon

Shiddatli bir g'alayon, suron.

Halovat yo'q jismim, jonimda

qirq besh yildan buyon...

Omon Muxtorning biz eslaganlardan tashqari, «Ohang» (1974 y.), «Yog'du» (1979 y.), «Marvarid» (1985 y.) singari she'riy kitoblari ham bor (uning she'riyati ushbu kitobda to'laroq holda o'quvchi e'tiboriga havola qilinayapti). U yozgan she'rlarda samimiyat va hayrat kuchli.

Faollik-harakat (kuchli ehtiros) ularga hayotbaxsh ohang bag'ishlaydi.

Omon Muxtor ona shahri Buxoroga tashrif buyurganida imkon qadar mahalliy qalam ahli, jumladan o'zi uchun qadrdon dargoh «Buxoronoma» tahririyati jamoasi bilan uchrashadi. Siz ko'rib turgan ushbu surat adib bilan 2003 yilda tahririyatda bo'lib o'tgan ana shunday unutilmas ijodiy muloqotdan so'ng olingan.

* * *

«Shoirning nasri» degan gap ayrim kishilarda «jiddiy nasr emas» degandek taassurot uyg'otadi. Holbuki, Cho'lponning yoki Oybekning sara asarlari ham shoirning nasridir! Hamma gap, nazmni ham, nasrni ham yaxshi tushunib, she'riy ruhni nasriy asarga qanday ufurishda bo'lsa kerak. Shoir Omon Muxtor boshdan she'rda o'zi egallagan tajribani asta-sekin nasrda qo'llab bordi. Uning shoirligi faqat uslubda ko'rinmay, bora-bora she'riy obrazlar, ramzlar, hatto she'riy tafakkur adibning nasriy asarlariga ko'chgandek bo'ldi. Ilk she'rlar to'plamidan ikki yil keyin bosilgan dastlabki «Nigoh» kitobidan boshlab adibning «Qushlar va tushlar», «Shaharlik kelinchak», «Hayot darvozasi», «Buxorolik donishmand», «Bolalikka

sayohat», «Vazifa», «O'lmagan jon», «Uchqur poezdlar», «Sherlok Xolms Buxoroda» kitoblaridan joy olgan hikoya va qissalarida bu «shoirona holat»ning takomillashib borishi jarayonini ko'rish mumkin.

Aytish kerakki, shoirning yoshlik yillarida hali ko'zga tashlangan ma'lum kamchilik-nuqsonlarga va ularning bartaraf bo'lib borish jarayoniga ham uning o'sha paytdagi nasriy asarlari aniq ko'zgudir.


Yozuvchi Omon Muxtor mustaqillik yillarida eng ko'p roman yozgan adib sifatida tanildi. Mustaqillik ijodkor imkoniyatlari doirasini kengaytirib yubordi. Bu haqda uning o'zi suhbatlaridan birida: «Mustaqillik menga qanot baxsh etdi. Ilgari bunday asarlarni yozish u yoqda tursin, o'ylash ham mumkin emasdi», degan edi («Turkiston» gazetasi, 2008 yil 14 may). Chindan ham ilk romani «Yillar shamoli» (1976 y.) bilan 2010 yilda nashr qilingan «Xotin podshoh» romani oralig'idagi 34 yillik muddat ichida oldinroq yozilgan yana bir «Egilgan bosh» romanidan keyin, mustaqillik yillariga kelib adib o'ndan ortiq roman yaratdi. «Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam», «Tepalikdagi xaroba» («To'rt tomon qibla» trilogiyasi), «Ffu», «Ayollar mamlakati va saltanati», «Aflotun», «Maydon», «Navoiy va rassom Abulxayr» (dilogiya), «Odamlar kulishlari kerak» romanlari bosilib chiqdi. Bularning har biri o'quvchilar va adabiy jamoatchilik tomonidan qizg'in kutib olindi. Jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'ldi.

Bunday qiziqish bejiz emas. Gap shundaki, bu romanlar eng avval, bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi, har biri o'ziga xos. Ularning deyarli barchasi roman janrining an'anaviy qoliplariga sig'maydi, ular shaklan ham, mazmunan ham o'zgacha yaratilgan. Bu yangilik birinchi navbatda romanlarda shartlilik tamoyillarining ustuvorligida ko'rinadi. Adib ilgari surayotgan g'oyaviy niyatini shartli unsurlar, shartli voqealar, ramziy timsollar va manzaralar orqali ifodalashga e'tibor beradi. U o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan mangu va doimiy mavzularni yangicha qiyofadagi qahramonlar galereyasi orqali ham inkishof etishga erishadi. Romanlarda tarix bilan zamon har doim yonma-yon turadi, qahramonlar ham o'tmish va bugun orasida. Yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ojizlik va jasorat, loqaydlik va g'ayrat, bilim va jaholat, xiyonat va sadoqat rishtalarini ayni chog'da bu qahramonlar o'zida to'la mujassam etadilar. Omon Muxtor aytish mumkinki, polifonik romanlar ijodkori hamdir. Uning deyarli barcha romanlari syujet va kompozitsion qurilishi, voqelikni bayon etish usullari, umum tuzilishi va qahramonlarning o'ziga xos ekanligidan—boshqa adabiyot namunalariga ham butkul o'xshamaydi. Muhimi, adib o'tgan asrning 90-yillarigacha o'zbek romanchiligida qaror topib kelgan monofonik (bir ovozli) bayonga asoslangan «tartib»ni buzib, polifonik (ko'p ovozli) romanlar yaratilishiga munosib hissa qo'shdi. Ammo bu polifonik romanlar o'z milliy ildizidan, ko'p yillik tarixga ega barhayot fazilatlardan uzilib qolgani yo'q. Aksincha, ular o'zigacha dunyoga kelgan Sharq an'anaviy romanchiligini yangicha bosqichga ko'tardi. Bu romanlar tarixiy-adabiy jihatdan ham, shakl-shamoili bilan ham qadim

xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizdagi mavjud usullarga yaqindir. Mamlakatimiz mustaqilligining o'n sakkiz yilligi arafasida O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi yozuvchi Omon Muxtor «Navoiy va rassom Abulxayr» asari uchun O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. «Ishq ahli» va «Buyuk farrosh» deb nomlangan ikki qismli bu diologiya-roman ustoz Oybekdan keyin ulug' Alisher Navoiyning monumental qiyofasini yaratishga Omon Muxtorning intilishini katta jasorat deb baholash mumkin. Omon Muxtor xoh nazm, xoh nasrda bo'lsin, asardan asarga mahorati o'sib, tafakkuri ulg'ayib, qalam tebratgan iste'dodli adibdir. Uning she'riyatida nasriy tajribasining ta'siri va nasriy asarlarida she'riyatining aks-sadolarini, umuman adib ijodidagi barcha yangi, muhim jihatlarni o'rganish o'zbek adabiyotshunosligi oldiga jiddiy tadqiqot olib borish talabini qo'yadi. «Egilgan bosh» romani uchun 1990 yili Yozuvchilar uyushmasining adabiy mukofotiga sazovor bo'ldi. Adib tavalludining ellik yilligida (1991) unga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi faxriy unvoni berildi. Asarlari rus va qardosh tillarga ham tarjima etilgan.

Yo'ldosh Solijonov

Omon Muxtor xotirasiga bag'ishlov



Men Omon aka bilan juda ko'p suhbatdosh bo'lganman. Ayniqsa, Qrimda, Ko'ktebel (Ko'ktepa) da dam olganimizda qarib bir oy davomida deyarli har kuni oqshom cho'kishi bilan Qoradengiz sohili bo'ylab yurib suhbatlashardik. O'sha paytlar Omon aka hali romanlarini yozmagan, ularni yuragi tubida asragan paytlar edi. O'sha suhbatlarda men Omon akaning, eng avvalo, beg'ubor, juda toza inson ekanini anglab yetgan edim. O'sha

suhbatlardan keyin ancha yaqinlashib qolgan, xonadonlariga ham ikki-uch marta borib suhbatlarimizni davom ettirgan edim.

Keyinchalik TVdagi ishim meni kabinetga «tiqib» qo'ygach, Omon aka romanlarini yozishga kirishgach, bir-birimizni anchagacha «yo'qotib» qo'ydik. Mana bugun uning o'limi xabarini eshitib, yuragim ezilib, o'sha suhbatlarni esladim. Esladimu bu suhbatlarni naqadar sog'inganimni fahmladim. Omon aka 16 iyul kuni 72 yoshga to'lardi. Men ham adibning kitoblaridan ayrim maqola va hikoyalarni ko'chirtirib, o'sha tavallud kuni arafasida sahifamga joylashtirishni rejalashtirgan edim. Adib vafot etgan kuni esa o'zim bilmagan holda uning G'afur G'ulomga bag'ishlangan xotirasini sizga havola etganimni o'ylasam, «Alloh ko'nglimga solgan ekan-da» deyman ichimda.

Bunday holat hayotimda ikkinchi bor takrorlanishi...

Matbuotda Omon Muxtorning yaqinlashayotgan 70 yoshi bois uning ijodiga bag'ishlangan maqolalar ko'rina boshlagan edi. Bugun o'sha sana oldidan yozilgan bir maqolani, Omon aka she'rlari va hikoyalaridan namunalarni adib xotirasiga bag'ishlov sifatida sizga taqdim etamiz.

Omon akani Alloh rahmatiga olsin.




Xurshid Davron



2013-yil

Omon Muxtor asarlari mundarijasi

- Omon Muxtor. Adabiyot muallimi (hikoya)
- Omon Muxtor. Ayollar mamlakati va saltanati (roman)
- Omon Muxtor. Amir Alisherning dardi (drama)
- Omon Muxtor. Daraxtlar parvozi (esse)
- Omon Muxtor. Yozilmagan hayot (hikoya)
- Omon Muxtor. Ijodkorning ko'ngil olami (adabiy manzaralar)
- Omon Muxtor. Ikki kishi (hikoya)
- Omon Muxtor. Yillar shamoli (roman)
- Omon Muxtor. Keksa muallim yoki Napoleon haykali (hikoya)
- Omon Muxtor. Qorboboning qaytishi (hikoya)
- Omon Muxtor. Mezon (hikoya)
- Omon Muxtor. Ming bir qiyofa (roman)
- Omon Muxtor. Muslim boboning nevaralari (hikoya)
- Omon Muxtor. Muhabbat o'limdan kuchli (roman)
- Omon Muxtor. Suratdagi yo'lbars (hikoya)
- Omon Muxtor. To'rt tomon qibla (trilogiya)
- Omon Muxtor. O'yin (hikoya)
- Omon Muxtor. Ffu (roman)
- Omon Muxtor. Xotin podshoh (romanlar)
- Omon Muxtor. Shayton arava (hikoya)
- Omon Muxtor. Shuhrat domla (esse)
- Omon Muxtor. Shuhrat domla (esse)

Omon Muxtor kitoblari





Xulosa

Yozuvchining har bir asari ijodiy izlanishlar maydoni vazifasini bajargan, desak xato bo'lmaydi. Uning "Yillar shamoli", "Aflotun", "Ffu", "Egilgan bosh", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba" romanlarining har biri o'ziga xos shakl va mazmunga, syujet va

kompozitsiyaga, obrazlar tizimi va g'oyaviy yo'nalishiga ega[obxonni ishontiradi va bu holat o'zini to'la oqlaydi. Omon Muxtor romanlaridan "oq tomir" bo'lib o'tgan bir mavzu bor. Bu –Buxoro, uning tarixi, osori-atiqalari. Yozuvchi Buxoro kishilari qiyofasini, tarixiy obidalarini, muammolarini ayrica muhabbat bilan tasvirlaydi. "Aflotun" romanidagi Rauf va uning otasi Abdurahimboy taqdirlari, "Yillar shamoli"dagi Kamol, Oliya va Zumrad hayoti kechgan yurt tasviri... Yoki tarixchi olim Mirzo G'olibning yurtning ertangi taqdiri bilan bog'liq kechinmalari, ayrim mansabdorlarning vaqtinchalik obro' deb tarixiy obidalarga nopisand munosabatlari va bu bilan ularning vayron bo'lishiga qo'shgan "hissalari"... Bularning barchasi kishini o'ylashga, fikrlashga chorlaydi. Bu romanlaridagi obraz va personajlarni yozuvchi atayin "oq" va "qora"ga, "salbiy" va "ijobiy"ga ajratish yo'lidan bormaydi, hatto ular qilmishlariga ochiq munosabat bildirishdan ham tiyilib turadi. Omon Muxtor romanlarida o'tmish va bugungi kun tasvirlari uyg'un bo'lib, yagona g'oyaning ochilishiga xizmat qiladi. Retrospektiv syujetning o'ziga xos ko'rinishi qahramon va personajlar xayoloti fonida namoyon bo'ladi.

Omon Muxtorning dastlabki yirik nasriy asari hisoblangan "Yillar shamoli"(1976) romanida Yevropa klassik adabiyoti namunalariga to'g'ridan-to'g'ri havolalarni uchratamiz. Markaziy qahramonlardan biri Qosimning botiniy olami ochib beriladigan boblardan birida kutubxonadagi voqea hikoya qilinadi.Oliyaning oldiga kelgan Qosim "Hamlet"spektaklidan olgan taassurotlari to'g'risida gapiradi: "Men bugun sen bilan bir oz yurakdan gaplashish uchun keldim. O'tgan ishga salovot. O'tgan gaplarni eslamaylik... Bilasanmi, bugun men uchun bayram. Buxoro teatri "Hamlet"ni qo'yibdi, shuni ko'rdim. Menga har qalay yoqdi. Lekin, rostini aytsam, artist bo'lganimda Hamletni o'zim o'ynardim. Axir, bu pyesani men boshdan-oyoq yod bilaman, keyin men o'zimcha Hamletni bu artistlardan ko'proq yaxshi ko'raman... Har qalay, men uni Muhammajon Rafiqovdan yomon o'ynamasdim!.."19Uilyam Shekspir tragediyasi va bosh qahramonining bu yerda eslanishi tasodifiy detal emas –u butun umr o'zgalar niqobini kiyib yashayotgan, "o'xshamagan aktyor", orzulari amalga oshmagan shaxs –Qosimning tragikomik obrazini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Bu o'rinda kontekstni ham hisobga olish muhimdir: roman yozilgan yillarda ulug' dramaturgning mazkur asari o'zbek kitobxonni va tomoshabiniga yaxshi tanish edi.Qosim nega Hamletni atayin eslab o'tmoqda? Yuzaki qaraganda o'xshashlik kuzatiladi: ikkala personaj ham mushohadaga moyil, o'zlarini o'zgalardan alohida hisoblashadi, bu dunyoda o'z o'rnini topolmayotganlardan. Biroq roman muallifi tomonidan o'xshashlik kinoyali shakllantirilgan. Hamlet hayot va mamot, nomus va burch, mavjudlik mazmuni to'g'risida fikrlasa, Qosim muvaffaqiyatsizliklari, putur yetgan xudsevarligi, kibriy xayollarining amalga oshmaganligi haqida o'ylaydi. Hamlet dunyodagi adolatsizlikka qarshi chiqsa, Qosim o'zi istaganlariga yetisholmaganligida dunyoni ayblaydi.

Adabiyotlar

- 1.Дониярова Ш. Омон Мухтор ижодида янгича талқинлар. –Т.: "Turon zamin ziyo", 2017. –112 б.
- 2.Мухтор О. Минг бир қиёфа. –Т.: “Шарқ”, 1994. –158 б.
- 3.Мухтор О. Аёллар мамлакати ва салтанати. –Т.: “Шарқ”, 1997. –238 б.
- 4.Мухторов О. Ёиллар шамоли. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. –200 б.
- 5.Nazarov O‘. Romanda badiiy xronotopning o‘ziga xosligi. –Т.: "Turon zamin ziyo", 2014. –140 b.
- 6.Normatov U. Ijod ahli. –Toshkent: Sharq, 2007. –352 b.
- 7.Pirnazarova M. Hozirgi ozbek romanlarida uslubiy izlanishlar. Fil.f.d. diss.avtoreferati. –Toshkent: 1994, –52 b.
- 8.Романнинг янги умри(профессорУ.Норматов билан суҳбат) // Дилмурод Қуроноф. “Адабиёт надир” ёки Чўлпоннинг мангу саволи. –Т.: Зарқалам, 2006. –Б. 99
- 9.Qo‘shjonov M. „Ishq ahli“ romani haqida. „Sharq yulduzi“ jurnali, 2001, 1-son.
- 10.Otaboev Ahmad. Romanga so‘z. „Yoshlik“ jurnali, 1996, 6-son.
- 11.Otaboev Ahmad. Roman haqida so‘z. „Sharq yulduzi“ jurnali, 1999-yil, 1-son.
- 12.Doniyorova SH. Omon Muxtor ijodida yangicha talqinlar. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2017;
- 13.Nazarov O'. Omon Muxtor romanlarida badiiy xronotop muammosi: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Qarshi, 2018;
- 14.Toirova N. Badiiy adabiyotda ko'zgu va surat ramzlarining g'oyaviy-estetik vazifalari (Omon Muxtor va Oskar Uayl'd asarlari misolida): filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Farg'ona, 2018;
- 15.Solijonov Y. XX asrning 80-90 yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filol.fan.dok...diss. – Toshkent, 1994;
- 16.Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent: Yangi nashr, 2010;
- 17.Davronova Sh. Istiqlol davri o'zbek romanlarida Sharq va G'arb an'analarining badiiy sintezi. Filol.fan.dok...diss. – Samarqand, 2019;
- 18.Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. Filol. fanlari d-ri. diss. ... avtoref. – T.: 2018. 70 b.
- 19.Pirnazarova M. Xozirgi o'zbek romanlarida uslubiy izlanishlar. Filol.fan.nomz....diss. – Toshkent, 2006.
- 20.Normatov U, Quronov D. Romanning yangi umri. – Jaxon adabiyoti, 2001, № 9;
- 21.Yo'ldoshev Q. Yuksalish manzillari // Kitobda: So'z yolqini. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
- 22.Quronov D. Mustaqillik davri o'zbek romanchiligida badiiy ifodaning yangilanishi // Kitobda: Adabiy o'ylar. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2016;
- 23.Sharafiddinova M. “Ming bir qiyofa” talqini. – Jahon adabiyoti, 2008, №11

24. To'ychiev A. Afsonaviy Suqrotni izlab. (Omon Muxtorning "Aflotun" romani va uning qisqacha mazmuni haqida). – O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1999, 12 noyabr`.
25. Solijonov Y. O'zbek polifonik romanlari. O'zbek tili va adabiyoti. 2002. №5; Yoqubov I. Ruh va fikr erkinligi. // "Ilm sarchashmalari" UrDU axborotnomasi. 2002, №4;
26. Doniyorova SH. Omon Muxtor ijodida fol`klor an'analari. – O'zbek tili va adabiyoti, 2001. № 5;
27. Toirova N. Omon Muxtor va O.Uayl`d romanlarida iblis obrazi.– O'zbek tili va adabiyoti, 2011. № 1;
28. Toirova N. "Ko'zgu oldidagi odam" romanida ko'zgu detalining g'oyaviy-estetik vazifalari. Ilmiy xabarnoma, ADU, 2016. № 2;
29. Muxtor O., Otaboev A. Ko'zgu – ruh pokligi. (davra suhbat). O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1995 y. 10 fevral
30. Muxtor O., Otaboev A. Har kimning o'z zamin, o'z osmoni bor. (davra suhbat). O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1998. – 6 mart;
31. Yo'ldoshev A., Muxtor O. Asar azob bilan yoziladi. // Kitobda: Uzun yo'lakdagi ikki kishi. – Toshkent: O'zbekiston,- 2011-yil

Mundarija

<i>So`z boshi</i> -----	2
<i>Omon Muxtor hayot va ijodi</i> -----	2-3
<i>Shoir she`rlaridan namunalar</i> -----	4-9
<i>Shiddat- shijoatli ijod</i> -----	9-12
<i>Omon Muxtor xotirasiga bag`ishlov</i> -----	12-13
<i>Omon Muxtor asarlari mundarijasi</i> -----	13
<i>Omon Muxtor kitoblari</i> -----	13-14
<i>Xulosa</i> -----	14-15
<i>Adabiyotlar</i> -----	16-17
<i>Mundarija</i> -----	17